

**SHAROF RASHIDOV NOMIDAGI SAMARQAND DAVLAT
UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/30.12.2021.Gr.02.07 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

GULISTON DAVLAT UNIVERSITETI

ALTIBAYEVA MUXAYYO BEGIMQULOVNA

**SIRDARYO VILOYATIDA XIZMAT KO'RSATISH TARMOQLARI
RIVOJLANISHINING GEOGRAFIK JIHATLARI**

11.00.02 – Iqtisodiy va ijtimoiy geografiya

**GEOGRAFIYA FANLARI BO'YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Samarqand – 2024

**Geografiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati
mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по
географическим наукам**

**Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD) on
geographical sciences**

Altibayeva Muxayyo Begimqulovna

Sirdaryo viloyatida xizmat ko‘rsatish tarmoqlari rivojlanishining geografik
jihatlari..... 3

Алтибаева Мухайё Бегимкуловна

Географические аспекты развития сервисных сетей Сырдарьинской
области..... 21

Altibayeva Mukhayo Begimkulovna

Geographical aspects of development of service networks in Syrdarya region 39

E‘lon qilingan ishlar ro‘uxati

Список опубликованных работ

List of published works 43

**SHAROF RASHIDOV NOMIDAGI SAMARQAND DAVLAT
UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/30.12.2021.Gr.02.07 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

GULISTON DAVLAT UNIVERSITETI

ALTIBAYEVA MUXAYYO BEGIMQULOVNA

**SIRDARYO VILOYATIDA XIZMAT KO'RSATISH TARMOQLARI
RIVOJLANISHINING GEOGRAFIK JIHATLARI**

11.00.02 – Iqtisodiy va ijtimoiy geografiya

**GEOGRAFIYA FANLARI BO'YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Samarqand – 2024

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2021.3.PhD/Gr166 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Guliston davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume) Ilmiy kengashning veb-sahifasi (www.samdu.uz) va "Ziyonet" axborot-ta'lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar: **Safarova Nasiba Irankulovna**
geografiya fanlari nomzodi, dotsent

Rasmiy opponentlar: **Turdimambetov Izimbet Raxmetovich**
geografiya fanlari doktori (DSc), professor

Muhammedov Odil Lapasovich
geografiya fanlari nomzodi, dotsent

Yetakchi tashkilot: **Jizzax davlat pedagogika universiteti**

Dissertatsiya himoyasi Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/30.12.2021.Gr.02.07 raqamli Ilmiy kengashning 2024-yil 5 noyabr soat 14:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 140104, Samarqand shahri, Universitet xiyoboni,15-uy, Samarqand davlat universiteti, Bosh bino 105-xona).Tel.: (95) 410-20-10, faks: (0366) 239-19-36; E-mail: ik-geografiya2019@mail.ru Samarqand davlat universiteti).

Dissertatsiya bilan Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (*107* raqami bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 140104, Samarqand shahri, Universitet xiyoboni,15-uy, Samarqand davlat universiteti, Bosh bino,105-xona.Tel.: (95) 410-20-10, faks: (0366) 239-19-36

Dissertatsiya avtoreferati 2024-yil "*22*" *oktyabr* kuni tarqatildi.
(2024-yil "*9*" *oktyabr* dagi *22* -raqamli reyestr bayonnomasi).



S.B.Abbasov
Ilmiy darajalar beruvchi
Ilmiy kengash raisi,
g.f.d., professor

B.A.Meliyev
Ilmiy darajalar beruvchi
Ilmiy kengash ilmiy kotibi,
g.f.f.d.(PhD), dotsent

Q.S.Yarashev
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy
kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi,
g.f.d., DSc, dotsent

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon iqtisodiyotida tub burilish bo'layotgan bir vaqtda xizmatlar sohasining ham iqtisodiy ahamiyati yildan yilga ortib borishi kuzatilmoqda. Xizmat ko'rsatish sohalari hududlar iqtisodiy taraqqiyotida, nisbatan arzon mehnat resurslarini yaratish, aholi bandligini oshirish hamda kambag'allikni qisqartirishdagi soha hisoblanadi. Shu bois, BMTning 2030-yilgacha barqaror rivojlanish bo'yicha dasturining 1-maqsadi "Barcha joylarda aholining kam ta'minlanganlik darajasini pasaytirish", 1.3-vazifa "Aholini ijtimoiy himoya qilish tizimining manzilligini va samaradorligini kuchaytirish, ijtimoiy himoya qilish xizmatlari sifatini oshirish" kabi vazifalari yechimiga yo'naltirilgan. Bu holat mamlakatlarning kam xarajat talab qiladigan xizmat ko'rsatish tarmoqlarini tashkil etish orqali aholi bandligi va turmush farovonligini ta'minlashga qaratilgan tizimli chora-tadbirlarni ishlab chiqishni va amaliyotga joriy qilishni taqozo qiladi.

Dunyo miqyosida xizmat ko'rsatish infratuzilmasida geografik farqlarni aniqlash, mintaqalarning tabiiy, ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot darajasini belgilash hamda demografik holatini yaxshilash, ko'plab nomoddiy sohalarning rivojlanishi uchun imkoniyatlarni kengaytirish, ularning asosiy iste'molchisi bo'lgan aholi talabini esa taklif etilayotgan xizmat turi hamda ishlab chiqaruvchilar salmog'ini oshirish kabi ishlarga alohida e'tibor qaratilmoqda. Bu borada xizmat ko'rsatish tarmoqlarini hududiy rivojlanishida yuqori darajada ta'sir ko'rsatadigan tabiiy, iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy, demografik, infrastrukturaviy omillar tahlilini amalga oshirish hamda aholining hayot darajasini yaxshilash, aholining zamonaviy va yuqori sifatga ega bo'lgan xizmatlardan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirishga ustuvor ahamiyat berilmoqda.

Respublikamizda so'nggi yillarda aholiga xizmat ko'rsatish sohasini hududiy tashkil etish va yangi xizmat turlarini rivojlantirish hamda aholining bandlik darajasini oshirish bo'yicha keng islohotlar amalga oshirilmoqda. Xususan, 2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasida "Hududlarning muhandislik-kommunikatsiya va ijtimoiy infratuzilma tizimini hamda xizmat ko'rsatish va servis sohasini rivojlantirish"¹ bo'yicha ustuvor vazifalar belgilab berilgan. Mazkur vazifalar, ayniqsa, qulay iqtisodiy va transport geografik o'rniga ega bo'lgan Sirdaryo viloyatida aholi bandligi, mehnat resurslarining shakllanishi va hududiy tarkibini takomillashtirishga yo'naltirilgan chuqur ilmiy-tadqiqotlarni olib borish muhim ahamiyat kasb etadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 11-maydagi PQ-5113-son "Xizmatlar sohasini jadal rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida", 2022-yil 27-yanvardagi PQ-104-son "Xizmatlar sohasini rivojlantirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarorlari, 2023-yil 1-iyundagi "Aholiga sifatli ijtimoiy xizmat va yordam ko'rsatish hamda uning samarali nazorat tizimini yo'lga qo'yish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar to'g'risida" PF-82-son farmoni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining" 2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekiston

¹O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni. 2022-2026-yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida. PF-60-son. 2022-yil 28-yanvar. <https://lex.uz/ru/docs/-5841063>.

taraqqiyot strategiyasi to'g'risidagi 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son farmoni ijrosini ta'minlash borasidagi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori, 07.05.2022-yildagi 242-son. 2022-2026-yillarda Sirdaryo viloyati hududlarini kompleks rivojlantirish va aholi turmush darajasini yanada yaxshilashga doir qo'shimcha chora-tadbirlar qarori, 2023-yil 11-sentyabrdagi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston-2030" strategiyasi to'g'risidagi PF-158-son Farmoni, shuningdek, mazkur sohaga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni oshirish jarayonida ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I. "Demokratik va huquqiy jamiyatni ma'naviy-axloqiy va madaniy rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish" yo'nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Xizmat ko'rsatish infratuzilmasi bilan bog'liq geografik muammolarni xorijlik olimlardan V. Kristaller, A. Lyosh ishlarida keltirilgan. MDH mamlakatlari iqtisodiy-ijtimoiy geografiyasi vakillari N.N.Baranskiy, Yu.G.Saushkinlar tomonidan o'rganilgan. Xizmat ko'rsatish infratuzilmasini hududiy tashkil etish muammolari bo'yicha ilmiy izlanishlarni A.I.Alekseyev, I.A.Abramovlar tomonidan olib borilgan, shuningdek xorijlik iqtisodchi olimlar V.P.Kondratov, T.D.Burmenko, F. Kotler, N.F. Golikov, E.A.Razomasova ishlarida keltirilgan. O'zbekistonda esa xizmat ko'rsatish infratuzilmasi iqtisodchi olimlar D.A Shadibekova, A.S. Abdurahmanov, A.N. Rahimov, I.B. Abdireymovichlar tomonidan o'rganilgan. Xizmat ko'rsatish tarmoqlarining geografik jihatlari asosan turizm sohasi misolida M. R. Usmonov, M.R. Usmonov, A.E. Matchanova, O.Q. Tobirovlar tomonidan batafsil o'rganilgan. Ijtimoiy infratuzilmaning hududiy jihatlari M. Nazarov, M. Atajonov, M. Xidirovlar tomonidan tadqiq etilgan.

Dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Guliston davlat universiteti ilmiy tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq №024 "Mirzacho'l vohasi tabiiy resurslaridan oqilona foydalanish va muhofaza qilish" loyihasi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi. Sirdaryo viloyatida xizmat ko'rsatish tarmoqlari rivojlanishidagi hududiy tafovut va muammolarini aniqlash hamda hududlardagi xizmat ko'rsatish sohalarini takomillashtirishning ustuvor yo'nalishlarini belgilashdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

xizmat ko'rsatish tarmoqlari hududiy rivojlanishining ilmiy nazariy asoslarini tahlil qilish. Respublikamizda mazkur soha rivojlanish geografiyasini o'rganish asosida, tarmoq faoliyatiga ta'sir etuvchi omillarni baholash;

Sirdaryo viloyati shahar va tumanlari xizmat ko'rsatish infratuzilmasi rivojlanish darajasi bo'yicha reytingini aniqlash va tipologiyasini amalga oshirish

Sirdaryo viloyatning qulay transport geografik o'rnini hisobga olib, xizmat turlarini rivojlantirish imkoniyatlarini o'rganish;

Sirdaryo viloyatida ekoturistik infratuzilmani takomillashtirishga oid taklif va tavsiyalar ishlab chiqish.

Tadqiqotning obyekti sifatida Sirdaryo viloyatidagi xizmat ko'rsatish tarmoqlari olingan.

Tadqiqotning predmetini Viloyat xizmat ko'rsatish tarmoqlari rivojlanishining geografik jihatlari, hududiy rivojlanish xususiyatlari va ularga ta'sir qiluvchi omillari tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Dissertatsiya ishida kartografik, SWOT-tahlil, tizimli tarkib, geografik taqqoslash, statistik, sotsiologik so'rovnoma, tipologiya, hududiy tahlil, geografik baholash usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

xizmat ko'rsatish tarmoqlari hududiy rivojlanish darajasiga an'anaviy ta'sir qiluvchi omillar bilan bir qatorda siyosiy qo'shnichilik holatining ham ahamiyati ortib borayotganligi o'rganilib omil sifatida baholangan;

Sirdaryo viloyatning shahar va tumanlari bo'yicha ta'lim, kommunal, moliyaviy, savdo, transport hamda aloqa va axborotlashtirish xizmatlari (8 ta ko'rsatkich)ning reyting o'rinlari o'rtacha qiymati guruhlash asosida baholangan;

viloyatning Sirdaryo, Oqoltin hamda Sardoba tumanlari hududidan o'tuvchi katta O'zbek trakti avtomagistral yo'lida xizmat ko'rsatish tarmoqlari rivojlantirishning hududiy xususiyatlari takomillashtirilgan;

relyefi tekisliklardan iborat bo'lgan Sirdaryo viloyatning Sirdaryo, Guliston va Sayxunobod tumanlarida daryo bo'yi ekoturizmni keng tashkil qilish imkoniyatlari aniqlangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

Sirdaryo viloyati aholisining turmush tarzi, xizmat ko'rsatish tarmoqlari rivojlanish darajasi sotsiologik so'rov asosida baholangan va u bilan bog'liq muammolar aniqlangan;

viloyat aholisining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish darajasi kesimida tibbiy xizmat, ta'lim, uy-joy kommunal xizmat turlari aks etgan xizmat ko'rsatish infratuzilmasiga doir turkum kartalar yaratilgan;

Sirdaryo viloyatida xizmat ko'rsatish tarmoqlari rivojlanishining holati, asosiy muammolari va imkoniyatlari SWOT tahlil yordamida amalga oshirilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi statistika agentligi, Sirdaryo viloyati statistika boshqarmasi ma'lumotlari asosida bajarilganligi, tadqiqot doirasida foydalanilgan nazariy yondashuvlar ilmiy asoslangan manbalardan olingani, shuningdek, ishlab chiqilgan xulosa, taklif va tavsiyalar amaliyotga joriy etilganligi, natijalarning vakolatli tuzilmalar

tasdiqlanganligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot ishining ilmiy ahamiyati dissertatsiyadagi ilmiy nazariy xulosalar, tavsiyalar, xizmat ko'rsatish tarmoqlari hududiy rivojlanish darajasini tahlil qilish, unga ta'sir qiluvchi an'anaviy omillarni baholash, xizmatlar sohasini rivojlantirishda siyosiy qo'shnichilik holatini omil sifatida qarash asosida xizmat ko'rsatish

infratuzilmasini yanada yaxshilash bo'yicha metodik yondoshuvlarni takomillashtirilganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati shundaki, ishda ishlab chiqilgan taklif va tavsiyalarning Sirdaryo viloyatida xizmat ko'rsatish tarmoqlarini kompleks rivojlantirishda, transportga xizmat ko'rsatish, savdo xizmatlarini va daryo bo'yi ekoturizmni rivojlantirishni takomillashtirishda xizmat qilishi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Sirdaryo viloyatida xizmat ko'rsatish tarmoqlarini rivojlantirishning geografik jihatlari bo'yicha olingan natijalar asosida:

xizmat ko'rsatish tarmoqlari hududiy rivojlanish darajasiga an'anaviy ta'sir qiluvchi omillarni baholashlardan Iqtisodiyot va moliya vazirligi amaliy faoliyatida foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligining 2024-yil 20-iyundagi 08/52-1-12847-son ma'lumotnomasi). Natijada, xizmat ko'rsatish tarmoqlari hududiy rivojlantirishdagi ustuvor yo'nalishlarini yanada aniqlashtirish imkonini bergan;

Sirdaryo viloyatning shahar va tumanlari bo'yicha ta'lim, kommunal, moliyaviy, savdo, transport hamda aloqa va axborotlashtirish xizmatlari (8 ta ko'rsatkich)ning reyting o'rinlari o'rtacha qiymatlaridan Iqtisodiyot va moliya vazirligi amaliy faoliyatida foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligining 2024-yil 20-iyundagi 08/52-1-12847-son ma'lumotnomasi). Natijada, viloyatda xizmat ko'rsatish turlarini kengaytirish hamda hududiy rivojlanish holatini tartibga solish imkoniyati yaxshilangan;

viloyatning Sirdaryo, Oqoltin hamda Sardoba tumanlari hududidan o'tuvchi katta O'zbek trakti avtomagistral yo'lida xizmat ko'rsatish tarmoqlarining takomillashtirilgan hududiy xususiyatlari Iqtisodiyot va moliya vazirligi amaliy faoliyatida foydalanishga joriy etilgan (O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligining 2024-yil 20-iyundagi 08/52-1-12847 son ma'lumotnomasi). Natijada, xizmat ko'rsatish tarmoqlarini rivojlantirishga qaratilgan hududiy dasturlarni takomillashtirish imkonini bergan;

relyefi tekisliklardan iborat bo'lgan Sirdaryo viloyatning Sirdaryo, Guliston va Sayxunobod tumanlarida daryo bo'yi ekoturizmni keng tashkil qilishning aniqlangan muhim jihatlari Iqtisodiyot va moliya vazirligi amaliy faoliyatida foydalanishga joriy etilgan (O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligining 2024-yil 20-iyundagi 08/52-1-12847-son ma'lumotnomasi). Natijada, viloyatda ekoturizmni keng tashkil etish bilan birgalikda turizm salohiyatini oshirish imkonini bergan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 9 ta ilmiy-amaliy anjumanlarda, jumladan 4 ta xalqaro va 5 ta respublika miqyosidagi ilmiy-amaliy anjumanlarda muhokamadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi yuzasidan jami 15 ta ilmiy ish chop etilgan. Shulardan O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining falsafa doktori (PhD) dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish uchun tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 5 ta maqola, jumladan, 2 ta respublika va 2 ta xorijiy jurnallarda nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya tarkibi kirish, uchta bob, xulosa, adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 120 betni tashkil qiladi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI


Kirish qismida tadqiqot ishining dolzarbligi va ahamiyati asoslangan, muammoning o'rganilganlik darajasi aks ettirilgan, tadqiqot ishining maqsadi va vazifalari, obyekt va predmeti tavsiflangan, respublika fan texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishiga mosligi ko'rsatilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarni nazariy va amaliy ahamiyati ochib berilgan. Tadqiqot natijalarini amaliyotda joriy qilish, nashr qilingan ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning **“Xizmat ko'rsatish tarmoqlari hududiy rivojlanishining ilmiy nazariy asoslari”** deb nomlangan birinchi bobida xizmat ko'rsatish tarmoqlari rivojlanishining ilmiy nazariy asoslari yoritilgan. Bunda xorijiy mamlakatlar olimlarining fikrlari, tadqiqotlarining mazmuni keltirilgan va o'zaro taqqoslangan. Xizmat ko'rsatish infratuzilmasini rivojlantirishga doir nazariyalar, xizmat ko'rsatish tarmog'i rivojlanishiga oid ilmiy tavsiyalar hamda modellari ko'rib chiqilgan. Xizmat ko'rsatish tarmoqlarini rivojlanishida V.Kristaller, A.Lyosh, N.N.Baranskiy, Saushkin hamda xizmat ko'rsatish infratuzilmasini hududiy tashkil etish muammolari bo'yicha ilmiy izlanishlarni A.I.Alekseyev, I.A.Abramovlar kabi olimlarning nazariya va modellari kiritilgan.

Shuningdek, mazkur bobda xizmatlar tushunchasi tahlil qilindi. Mazkur tushunchani aniqlashda eng keng tarqalgan yondoshuv mahsulotning nomoddiyligi, iste'molchini ishlab chiqarishdan ajralmasligi kabi xususiyatlarga asoslanadi. Xizmatlar tushunchasiga A.V.Sivitskiy ushbu ta'rifni taklif qiladi. “Xizmat ko'rsatish sohasi bu har qanday subyektlarga yoki iqtisodiy munosabatlarning har qanday ishtirokchisiga ta'siri bo'yicha birlashtirilgan va subyektning o'zida sifat o'zgarishlari bo'lmagan katta tarmoqni o'z ichiga olgan iqtisodiyotning bir qismi”, boshqacha qilib aytganda xizmatlarga iqtisodiyotning boshqa bir yangi moddiy boyliklar bevosita ishlab chiqarilmaydigan, lekin ayni paytda mavjud moddiy qadriyatlar xizmatlar iste'molchi uchun muhim bo'lgan yangi sifatlariga ega bo'lgan tarmoqlarni o'z ichiga oladi.

Iqtisodiy geografiyada ma'lum bir hududning xizmat ko'rsatish sohasini o'rganish orqali rivojlanish darajasini aniqlash imkonini beradigan tasniflar katta ahamiyatga ega. A.V.Sivitskiyning so'zlariga ko'ra, xizmat ko'rsatish past darajada rivojlangan mamlakatlarda u ko'proq maishiy xizmatlar bilan ifodalanadi, rivojlangan mamlakatlarda esa ishlab chiqarish xizmatlarining ulushi kattaroq. Bu qarashni bir qancha omillar bilan izohlash mumkin. Postindustrial rivojlanish yo'lidan borayotgan mamlakatlarda xizmat ko'rsatishning zamonaviy shakli keng tarqalgan bo'lib, bu ishlab chiqarish xizmatlarini rivojlanishiga keng yordam beradi. Shuningdek mazkur bobda, O'zbekiston respublikasida xizmat ko'rsatish tarmoqlariga qaratilgan chora-tadbirlar hamda ushbu sohaning hududiy xususiyatlari o'rganildi hamda xizmat ko'rsatish infratuzilmasiga tasir etuvchi

1-rasm. Xizmat ko'rsatish tarmoqlari rivojlanishiga ta'sir ko'rsatuvchi omillar



tabiiy, ijtimoiy-iqtisodiy geografik omillar tahlil qilindi. Ijtimoiy-iqtisodiy omillar qatoriga kiruvchi ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot, demografik hamda milliy omillarga urg'u berilgan holda muallif tomonidan siyosiy qo'shni uchlik holatini omil sifatida talqin qilindi. Bugungi kunda xizmat ko'rsatish tarmoqlari ba'zi turlarini tashkil qilishda qo'shni davlatlarni mazkur tarmoqqa bo'lgan ehtiyoji o'rganiladi va shu asosida tashkil qilinadi.

Respublikamizning tashqi qo'shnilari bilan bevosita chegarasi bo'lgan bir qator hududlarining transchegaraviy xususiyati e'tiborga olingan holda ular bilan yuk va yo'lovchi tashish, yuklarni saqlash xizmat turini rivojlantirishda mazkur omilning ahamiyati yoritilgan.

Dissertatsiyaning **“Sirdaryo viloyati xizmat ko'rsatish tarmoqlari rivojlanishining asosiy omillari”** deb nomlangan ikkinchi bobida Sirdaryo viloyati xizmat ko'rsatish tarmoqlar rivojlanishiga tabiiy sharoit, geodemografik hamda iqtisodiy - ijtimoiy rivojlanganlik darajasi omil sifatida katta ta'sir etishi aniqlandi. O'rganilayotgan hudud re'lefi to'liqligicha tekislikdan iborat bo'lsada, daryo bo'ylari o'ziga xos landshaftga ega. Dam oluvchilarni o'ziga jalb qiladigan mikroiklim xususiyatlari, baliq ovlash, cho'milish joylari kishilarning maroqli dam olishini ta'minlab beradi. Aytish joizki: Hudud aholisi kunlar isishi bilan qo'shni viloyatlarga dam olish maskanlariga intilishadi. Bundan ko'rinib turibdiki, aholining uzoq yo'l va xarajat talab qilmaydigan rekratsion ob'yektlarga talabi katta. Vaholanki, aholining qisqa vaqt davomida maroqli dam olishlarini tashkil qilish uchun mintaqada yetarli tabiiy sharoit mavjud. Masalan, Guliston shahriga yaqin bo'lgan Guliston va Boyovut hamda Sirdaryo tumanlari hududidan oquvchi Sirdaryo daryosi o'zni beqiyosdir. Daryo bo'ylarida xushmanzara tabiiy landshaftlarda baliq tutish, dam olish va ekoturizm uchun qulay sharoitlar talaygina. Mavjud imkoniyatlardan samarali foydalangan holda turistik xizmatni yo'lga qo'yish ham samara beradi.

Shuningdek, mazkur tadqiqot ishida xizmat ko'rsatish tarmoqlari rivojlanishida geodemografik omilning ham ahamiyati keng yoritilgan. Xizmat ko'rsatish infratuzilmasi aholiga xizmat qilar ekan, ijtimoiy geografik tadqiqotlarda aholining o'sishi, joylanishi milliy etnik va yosh tarkibini tahlil qilish muhim ahamiyat kasb etadi. Aholi hamda ishlab chiqarishning joylashuvi bir biri bilan aloqador bo'lib, hududlar iqtisodiy-ijtimoiy rivojlanishiga, ishlab chiqarishni hududiy tashkil etishga bevosita ta'sir ko'rsatadi.

O'rganilayotgan viloyat hududida respublikaning 3% aholisi yashaydi. Bu yerda aholi zichligi yuqori bo'lib o'rtacha zichlik 210 kishiga teng. So'ngi yillarga kelib mintaqa aholisining tabiiy o'sishi birmuncha tezlashganligini ko'rish mumkin. 2008-2014-yillarda o'rtacha 12,3 ming, 2014-2022-yillarda esa o'rtacha 14,1 ming kishiga ortgan. Hudud aholisining bunday o'sib borishi uning tabiiy va mexanik harakatiga bog'liq. Mintaqada tug'ilish koeffitsientining ham avvalgi 30 yillikka nisbatan birmuncha oshganini ko'rishimiz mumkin. Jumladan u 2008-yilda 24,3 promilliga teng bo'lgan, 2013-yilda esa 21,9 ni, 2022-yilga kelib 26,5 promillini tashkil qilmoqda.

Xizmat ko'rsatish infratuzilmasini tashkil etishda aholining joylashuvini va zichligini tahlil qilish maqsadga muvofiqdir. Viloyatda aholinining o'rtacha zichligi

1 kv.km maydonga o'rtacha 210 kishidan to'g'ri kelgan holda, Guliston shahrida 2282,5 kishini, Shirin shahri 1890 kishi, Yangiyer shahriniki esa 1473 kishiga tengdir. Aholi zichligida tumanlar kesimida Boyovut tumani yetakchilik qilmoqda (253,2 kishi). Shu bilan birga Sirdaryo (236,5 kishi), Guliston (211,7 kishi) tumanlarida ham nisbatan yuqori ko'rsatkichlar qayd qilinadi. Aholi zichligi Xovos (156,6 kishi), Mirzaobod (117,4 kishi), Sardoba (128,8 kishi), Oqoltin (52,9 kishi) tumanlarida nisbatan pastligi bilan ajralib turadi.

1-jadval

Sirdaryo viloyati shahar va tumanlari moliyaviy, savdo, transport hamda aloqa va axborotlashtirish xizmatlari holatini reytingini baholash*

Tumanlar	Ko'rsatkichlar								O'rtacha integral o'rin	Reyting o'ri
	Moliyaviy xizmatlar		Savdo xizmatlari		Transport xizmatlari		Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari			
	Ko'rsatkich (mln so'm)	Reyting	Ko'rsatkich (mln som)	Reyting	Ko'rsatkich (mln so'm)	Reyting	Ko'rsatkich (mln so'm)	Reyting		
Guliston sh	988237,2	1	313055,7	1	164666,4	1	163082,9	1	1	1
Shirin sh	11380,0	11	23692,2	11	10632,7	11	3233,3	11	11	11
Yangiyer sh	61204,6	4	127593,1	3	104428,4	3	7625,8	10	5	3
Boyovut t	106667,9	3	97139,2	5	24422,3	9	20264,7	3	5	3
Guliston t	54415,2	7	63724,0	8	43604,2	6	12347,9	6	6,75	6
Mirzaobod t	32776,7	10	113016,6	4	48696,0	4	12678,0	5	5,75	5
Oqoltin t	38983,0	9	46992,3	10	17840,4	10	8332,9	9	9,5	8
Sayxunobod t	60599,2	5	79338,8	7	33203,0	8	12337,0	7	6,75	6
Sardoba t	45309,9	8	52571,1	9	35389,1	7	10354,1	8	8	7
Sirdaryo t	130223,4	2	248162,9	2	119461,5	2	21964,9	2	2	2
Xovos t	60503,1	6	91359,2	6	44328,1	5	14921,5	4	5,25	4

 - Yuqori  - O'rtta  - Past

*Izoh: jadval Sirdaryo viloyati statistika boshqarmasi ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan.

Viloyat aholisi salmog'ida 2022-yil holatiga ko'ra 18 yoshgacha bo'lganlar (303635 mingta) 34,9 % ni qamrab olgan. Aholini yosh guruhlari bo'yicha tahlil qilish xizmat ko'rsatish infratuzilmasini hududiy tashkil etishda muhim omil sanaladi. Masalan, ta'lim va tibbiy xizmat ko'rsatish, maktabgacha ta'lim muassasalarini umumta'lim maktablari hamda pederatiriya xizmatlarini tashkil etishda mazkur yoshdagi salmog'iga asosiy urg'u beriladi. Shu bilan birga 18-40 yoshgacha (340172 mingta) 39,5%, 40-60 yoshgacha (167324) 19,4%, 60 yoshdan yuqori aholi ulushi esa (59448) 6,9 % tashkil qilmoqda. Ushbu yosh guruhlari tahlili ham ijtimoiy xizmat ko'rsatish tarmoqlarini tashkil etishda muhim ro'l o'ynaydi. Aholininig jinsiy tarkibini esa ko'proq maishiy xizmatni tashkil etishda o'z ifodasini topadi.

Viloyat bo'yicha eng yuqori ko'rsatkichlarga ega bo'lgan xizmat turlari moliyaviy xizmatlar, savdo xizmatlari, transport va aloqa axborolashtirish xizmatlarini hamda aholining yashash darajasining asosiy mezonlarini belgilab beruvchi toza ichimlik suvi, tabiiy gaz, maktabgacha ta'lim va maktablarning oliy ta'lim bilan qamrov darajalari hududiy xususiyatlari reytingi baholandi. Viloyatning shahar va tumanlaridagi holati hududiy tahlil qilinganda ko'zga tashlanarli farqlarni ko'rish mumkin. Ushbu sohalarida ham yuqori ko'rsatkichni Guliston, Yangiyer shaharlari va Sirdaryo, Boyovut tumanlari egallagan holda, quyi pog'onalarni Shirin shahri va Oqoltin tumani band qilib turibdi.

Viloyatda chakana savdo aylanmasining salmog'i bo'yicha Guliston shahri hamda Sirdaryo tumanlari yetakchilik qilmoqda, Yangiyer shahri hamda Sardoba va Boyovut tumanlarining ulushi ham nisbatan yuqoriroq. Pullik xizmatlarning ham qishloq tumanlari va shaharlari bo'yicha taqsimlanishi turlicha, bunda Guliston shahrining mavqeyi yanada yuqori-58,6%. Ushbu soha mintaqada o'ta markazlashganligini ko'rishimiz mumkin. Viloyat markazidan tashqari pullik xizmatlar hajmi Sirdaryo tumanida ham bir muncha kattaroq ulushga ega (10,6 %). Ammo aholining jon boshiga hisoblaganda mutlaqo boshqacha xulosalarga kelish mumkin.

Tadqiqotda shuningdek viloyatning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot darajasining xizmat ko'rsatish tarmoqlariga ta'siri yoritilgan. Bugungi kunda viloyatda aholini toza ichimlik suvi bilan ta'minlanishi darajasi o'rtacha 85,4 foizni tashkil qilib, Guliston shahrida u 99,1 %, Shirin shahri 99,8%, Yangiyer shahri 83,4 %, Boyovut tumani 93,2 %, Oqoltin 93,2%, Guliston 92,4 %, Sayxunobod 89,5 %, Sirdaryo 87,7 %, Mirzaobod 82, 8%, Sardoba 79,4 %, Xovos tumanida 78,8 % aholi toza ichimlik suvi bilan ta'minlangan. Raqamlardan shuni ko'rish mumkinki, viloyatning Yangiyer shahri va Sardoba, Xovos tumanlarida aholisi toza ichimlik suvi bilan yetarli darajada ta'minlanmagan.

Respublikamiz boshqa hududlari singari Sirdaryo viloyati aholisining tabiiy gaz bilan ta'minlanishida qator yechimini kutayotgan muammolar mavjudligini ko'rish mumkin. Viloyat aholisining o'rtacha tabiiy gaz bilan ta'minlanish darajasi 60 foizni tashkil qilib, Guliston, Yangiyer hamda Shirin shaharlari aholisi 100% tabiiy gaz tarmoqlari bilan ta'minlangan bo'lsa, tumanlarda esa buni aksini ko'rish mumkin. Boyovut tumanida 41,1 %, Guliston tumani 42,3 %, Mirzaobod tumani 51,7%, Oqoltin tumani 40,0 %, Sayxunobod tumani 32,7%, Sardoba 43,3 %,

Sirdaryo 51 % aholisi tabiiy gaz bilan ta'minlangan xolos. Faqatgina viloyatning Xovos tumanida bu ko'rsatkich nisbatan yuqori bo'lib, 84,7 % ni tashkil qilmoqda.

Viloyatda mavjud maktabgacha ta'lim tashkilotlari soni 2010-yilda 163 tani tashkil qilgan bo'lsa, 2020-yilda 217 tani tashkil qilmoqda. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida tarbiyalanuvchilar soni 13745 tadan 28739 taga, pedagog xodimlar soni 1339 tadan 2837 kishiga o'sganini ko'rishimiz mumkin. Umuman olganda maktabgacha ta'lim tizimi faoliyatini hamda aholining mazkur xizmat turidan foydalanish darajasini hududlar kesimida ko'rib chiqib aniq xulosaga kelish mumkin.

2-jadval

Sirdaryo viloyati shahar va tumanlari ta'lim hamda kommunal xizmatlari holatini reytingini baholash*

Tumanlar	Ko'rsatqichlar								O'rtacha integral o'rin	Reyting o'rni
	Maktablar oliy ta'lim bilan qamrovi		Maktabgacha ta'lim qamrovi		Ichimlik suvi bilan ta'minlanganlik		Tabiiy gaz bilan ta'minlanganlik			
	Ko'rsatkich	Reyting	Ko'rsatkich	Reyting	Ko'rsatkich	Reyting	Ko'rsatkich	Reyting		
Guliston sh	32,7%	2	93,7%	1	99,1%	1	100%	1	1.25	1
Shirin sh	49,0%	1	83%	4	99,8%	2	100%	1	2	2
Yangiyer sh	30,7%	6	89,2%	2	83,4%	8	100%	1	4,25	3
Boyovut t	32,1%	3	76,2%	7	93,2%	3	41,1%	7	5	4
Guliston t	25,7%	7	87,3%	3	92,4%	5	42,3%	6	5,25	5
Mirzaobod t	31,4%	4	78,5%	6	82,8%	9	51,7%	4	5,75	6
Oqoltin t	23,6%	9	73,0%	8	92,3%	4	40,0%	8	7,25	8
Sayxunobod t	23,5%	10	65,0%	10	89,5%	6	32,7%	9	8,75	11
Sardoba t	31,3%	5	82,2%	5	79,4%	10	43,3%	5	6,25	7
Sirdaryo t	17,0%	11	71,0%	9	87,7%	7	51,7%	3	7,5	9
Xovos t	24,0%	8	66,0%	11	78,8%	11	84,7%	2	8	10

 - Yuqori  - O'rta  - Past

*Izoh: jadval Sirdaryo viloyati statistika boshqarmasi ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan.

Viloyatda maktabgacha yoshdagi bolalarni qamrov darajasi o'rtacha 77,3 % ni tashkil qilib, bunda Guliston shahri 93,7 %, Yangiyer shahri 89,2 % , Shirin shahri 83 % ni qamrab olgan bo'lsa, ushbu ko'rsatkich Boyovut tumanida 76,2 %, Guliston tumani 87,3 %, Mirzaobod tumani 78,5%, Oqoltin tumani 73,0 %, Sayxunobod tumani 65,0%, Sardoba 82,2 %, Sirdaryo 71,0 %, nisbatanpast ko'rsatkich Xovos tumanida kuzatilmoqda.

Umumta'lim muassasalari soni esa 304 tadan 316 taga ko'payib, unda tahsil olayotgan o'quvchilar soni 13745 tadan 15862 taga oshib, faoliyat yuritayotgan o'qituvchilar soni esa 9706 kishidan 13517 kishiga yetgan. Umumta'lim maktablarini sifat ko'rsatkichlarini baholashda maktab bitiruvchilarining oliy ta'lim muassasalariga kirish darajasi bilan belgilash to'g'ri bo'ladi. Viloyat umumta'lim maktablarining OTM lar bilan qamrov darajasi o'rtacha 29,1 5 ni tashkil qilib, hududlar kesimida qaralganda Guliston shahri 32,7 %, Yangiyer shahri 30,7 %, Shirin shahri 49,0 % ni qamrab olgan holda, ushbu ko'rsatkich Boyovut tumanida 32,1 %, Guliston tumani 25,7 %, Mirzaobod tumani 31,4%, Oqoltin tumani 23,6 %, Sayxunobod tumani 23,5%, Sardoba 31,23%, Sirdaryo 17,0 % , Xovos tumanida 24,0 % bitiruvchilar talaba bo'lgan.

Aholiga tibbiy xizmat ko'rsatish tizimini takomillashtirish, tibbiyot muassasalarini tog'ri tashkil etish, aholi salomatligi kabi masalalarga e'tibor qaratish ijtimoiy infrasutruktura tarkibida katta ahamiyatga ega Sirdaryo viloyatida 2010-yilda faoliyat yuritayotgan shifoxona muassasalari soni 38 tani tashkil qilgan bo'lsa, 2020-yilda 42 tani tashkil qilmoqda. Mazkur yilda faoliyat yuritayotgan ambulator-poliklinikalarlari soni 157 tani, va mavjud shifoxona muassasalarining koykalari soni 4,0 ming tani, tibbiyot xodimi soni 14,4 ming kishini tashkil etgan. 2020-yil holatiga ko'ra tuman va shaharlar kesimida: Guliston shahrida 4,3 ming kishi, O'rta tibbiyot xodimlari soni 9,0 ming kishini tashkil qilgan bo'lsa, 2020-yilda 24,9 ming kishini tashkil qilmoqda. 2010-yilda Tibbiyot vrachlari soni 1,4 ming kishidan, 2020-yilda 1,8 ming kishiga yetganini ko'rishimiz mumkin. Shuningdek, aholiga tibbiy xizmat ko'rsatish Guliston va Yangiyer shaharlarida yaxshi yo'lga qo'yilgan.

Viloyatning iqtisodiy-ijimoiy rivojlanish prognozini ishlab chiqishda avvalo xizmat ko'rsatish tarmoqlardagi hududiy tafovutlarni imkon qadar yaqinlashtirish lozim. Sardoba va Oqoltin tumanlarining o'ziga xos geografik mavqeyidan unumli foydalanishni taqozo qiladi. Masalan: Oqoltin tumanidan o'tuvchi M-39, A-373 magistral yo'lda sutkalik harakat rejimi 32492 tani tashkil qiladi. Bu raqamlar ko'p jihatdan xizmat turlarini tashkil etishga va rivojlantirishda asosiy omil bo'lib xizmat qiladi. Respublika ahamiyatiga ega bo'lgan ushbu yo'lda faqatgina yoqilg'i quyish shaxobchalarini uchratish mumkin. Vaholanki bu hududda respublikaga mashxur Sirdaryo qovunlari yetishtiriladi, buning negizida agroturizmni tashkil etish imkoniyatlari mavjud.

Dissertatsiyaning **“Sirdaryo viloyatida xizmat ko'rsatish tarmoqlari asosiy muammolari va imkoniyatlari”** deb nomlangan uchinchi bobida xizmat ko'rsatish imkoniyatlari SWOT tahlil yordamida aniqlandi.

Viloyatda tumanlar son jihatidan respublikamizda oxirgi o'rinda turadi. Shunday bo'lsada hududlar bo'yicha xizmat ko'rsatish infratuzilmasida ko'plab

tafovutlar kuzatiladi. Ayni vaqtda, aholi o'rtasida o'tkaziladigan so'rovnoma orqali joylardagi holatga aniq baho berish mumkin. Aholining iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanganlik darajasi, xizmat ko'rsatish infrastruktura bilan ta'minlanganligini tahlil qilish, aholi fikrini o'rganish muhim ahamiyat kasb etadi.

Muallif tomonidan viloyatning to'rtta tumanida 2022-yilda so'rovnoma o'tkazildi. Unda jami 1260 ta respondent ishtirok etdi. Tanlangan tumanlar bir-biridan tabiiy sharoiti, geografik o'rni, aholi soni va zichligi, hududning iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanganlik darajasi bilan farqlanadi. Mazkur jarayon davomida viloyat markaziga yaqin joylashgan Guliston tumanidan 300 ta, eng kech tashkil qilingan Mirzaobod tumanidan 320 ta, ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot jihatdan ortda borayotgan Sardoba tumanidan 310 ta hamda chegara hududda joylashgan Xovos tumanidan 330 ta respondent fikri o'rganildi.

So'rovnoma natijasida Sirdaryo viloyatida xizmat ko'rsatish infratuzilmasida hududlar kesimida tafovutlar ko'zga tashlanadi. Masalan o'rganilayotgan hududning Sardoba, Boyovut hamda Mirzaobod tumanlarida tabiiy gaz bilan ta'minlanganlik darajasi o'rtachadan ham past. Shuningdek, uning barcha tumanlarida maishiy xizmatni takomillashtirishga doir tavsiyalar berilgan. Ijtimoiy soha tarmoqlari faoliyati davlat hamda jamiyat tomonidan muttasil baholanib boradi. Xususan, turli ijtimoiy guruhlar tomonidan tibbiy xizmat va ta'lim olish imkoniyati ijtimoiy adolat nuqtayi nazaridan baholab boriladi. Tibbiy xizmatdan hamda madaniyat muassasalaridan foydalanish, ta'lim olish imkoniyati xalqaro tashkilotlar va ko'pgina davlatlarning konstitutsiyalarida insonning ajralmas huquqi sifatida e'tirof etilganligini hisobga olib, hududlar bo'yicha mazkur tarmoqlar faoliyatini klasterli tashkil etishni taqozo qiladi. Ushbu soha tarmoqlarini qamrovini kengaytirish ko'p jihatdan mazkur omillarga bog'liq:

-xizmat ko'rsatish infratuzilmasini hududiy tarkibini takomillashtirishda hududlarning xo'jalik ixtisoslashuvini hisobga olish;

-aholining xizmat ko'rsatish muassasalariga qatnashi uchun kam vaqt va mablag' talab qilinishi;

-shuningdek, aholining hordiq chiqarib dam olishi uchun sharoitlar yaratilishi lozim, bunda mintaqaning mazkur xo'jalik faoliyatini takomillashtirishga doir sharoit va imkoniyatlarini mukammal tahlil qilishni taqozo etadi.

XULOSA

Sirdaryo viloyatida xizmat ko'rsatish tarmoqlari rivojlanishining geografik jihatlari yuzasidan olib borilgan tadqiqotlar natijasida olingan ma'lumotlar hamda ularning tahlili quyidagi xulosalarga kelish uchun asos bo'ldi:

1. Aholiga xizmat ko'rsatish sohalari geografiyasiga doir bajariladigan tadqiqotlarni ikkita yo'nalishga ajratish mumkin. Birinchisi tarmoq ya'ni bir xizmat ko'rsatish sohalari alohida o'rganilsa, ikkinchi yo'nalish – hududiy va majmual, ya'ni bunda xizmat ko'rsatish sohalari kompleks holda va ma'lum bir hududda tadqiq qiladi.

2. Xizmat ko'rsatish tarmoqlari hududiy rivojlanish darajasi tahlili jarayonida, unga ta'sir qiluvchi tabiiy, ijtimoiy-iqtisodiy omillar ta'siriga baho berildi.

Shuningdek, bugungi kunda xizmat ko'rsatish tarmoqlari ba'zi turlarini tashkil qilishda qo'shni davlatlarni mazkur tarmoqqa bo'lgan ehtiyoji o'rganiladi va shu asosida mazkur tadqiqotda siyosiy qo'shnihilik holatiga omil sifatida baho berildi.

3. Sirdaryo viloyatida xizmat ko'rsatish tarmoqlari tadqiq qilishda uning geografik o'rni, geodemografik holati, iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanganlik darajasi ta'siri ko'rib chiqildi va mazkur omillarning soha tarmoqlari rivojlanishidagi ahamiyati baholandi. Aholi soni, dinamikasi, tabiiy va mexanik harakati, aholining demografik hamda milliy tarkibi, hududiy joylashuvining xizmat ko'rsatish tarmoqlari taraqqiyoti bilan yuzaga kelgan bog'liqlik aniqlandi.

4. Sirdaryo viloyati tarixiy va rekreatsion obyektlari geografik jihatdan tadqiq qilinib, turizm imkoniyatlari baholandi hamda mintaqaning iqtisodiy va transport o'rning qulayligi, mehnat resurslari bilan yaxshi ta'minlanganligi kabi xususiyatlari inobatga olingan holda xizmat ko'rsatish infratuzilmasini rivojlantirish imkoniyatlari SWOT tahlili yordamida amalga oshirildi.

5. Viloyat aholisining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish darajasi kesimida tibbiy xizmat, ta'lim, uy-joy kommunal xizmat turlari aks etgan xizmat ko'rsatish infratuzilmasiga doir turkum kartalar yaratildi.

6. Viloyat tabiiy ekologik holati, ijtimoiy demografik xususiyatlarini inobatga olib, turar joy massivlarida kanalizatsiya tarmoqlari bilan ta'minlash faoliyatini takomillashtirish, sanitariya - maishiy obyektlar faoliyatiga doir yangi namunaviy loyihalarini ishlab chiqish va hayotga tadbiiq etishni taqozo qiladi. Guliston shahri va tuman markazlaridagi namunaviy loyihalar asosida qurilgan ko'p qavatli uylarda kanalizatsiya bilan ta'minlanish darajasida qator yechimini kutayotgan muammolar talaygina. Bundan ko'rinib turibdiki, viloyat mintaqada kommunal xizmatga bo'lgan talab katta. Ushbu muammolarni bartaraf etishda mazkur xizmat tarmog'ini imkon qadar kengaytirish lozim.

7. Viloyatda 2022-yilda yalpi hududiy mahsulot tarkibida xizmat ko'rsatish sohalarining ulushi 29,6% ni tashkil etgan holda u 2021-yilga nisbatan 1,6 foizga o'sgan. Xizmatlar sohasida eng katta ulush moliyaviy xizmatlar 32,2%, savdo 24,4% va transport 13,0% xizmatlarga to'g'ri kelgan. Keyingi o'rinlarni aloqa va axborotlashtirish xizmatlari 5,5%, ta'lim xizmatlari 3,6%, ijara 3,0% va ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar 2,7% egallagan. Viloyatning shahar va tumanlari ta'lim, kommunal, moliyaviy, savdo, transport hamda aloqa va axborotlashtirish xizmatlari (8 ta ko'rsatkich)ning reytingi o'rinlarining o'rtacha qiymati bo'yicha guruhlash asosida baholangan. Bunda viloyatning 11 ta hududiy birliklari reyting natijasiga ko'ra yuqori, o'rta va quyi darajalarga ajratilgan holda tahlil qilindi.

8. Viloyatning iqtisodiy-ijtimoiy rivojlanish prognozini ishlab chiqishda avvalo xizmat ko'rsatish tarmoqlaridagi hududiy tafovutlarni imkon qadar yaqinlashtirish lozim. Sardoba va Oqoltin tumanlarining o'ziga xos geografik mavqeyidan unumli foydalanishni taqozo qiladi. Masalan: Oqoltin tumanidan o'tuvchi M-39, A-373 magistral yo'lda sutkalik harakat rejimi 32492 tani tashkil qiladi. Bu raqamlar ko'p jihatdan xizmat turlarini tashkil etishga va rivojlantirishda asosiy omil bo'lib xizmat qiladi. Mazkur tumanlar hududida avtomagistral yo'lida transportga xizmat ko'rsatish tizimini rivojlantirish,

mintaqaviy ahamiyatga ega bo'lgan savdo muassasalari tashkil etishga oid ilmiy tavsiyalar ishlab chiqilgan.

9. Mintaqa aholisining hordiq chiqarib dam olishi uchun sharoitlar yetarli darajada tashkil qilingan deb bo'lmaydi, bunda mintaqaning mazkur xo'jalik faoliyatini takomillashtirishga doir sharoit va imkoniyatlarini mukammal tahlil qilishni taqozo etadi. Relyefi tekisliklardan iborat bo'lgan Sirdaryo viloyatning Sirdaryo, Guliston va Sayxunobod tumanlarida daryo bo'yi ekoturizmni keng tashkil qilishga oid taklif va tavsiyalar ishlab chiqildi. Shuningdek, viloyatda turistik infratuzilmani takomillashtirishga doir tavsiyalar ham berilgan.

**НАУЧНЫЙ СОВЕТ ПО ПРИСУЖДЕНИЮ НАУЧНЫХ СТЕПЕНЕЙ
№ DSc.03/30.12.2021.Gr.02.07 ПРИ САМАРКАНДСКОМ
ГОСУДАРСТВЕННОМ УНИВЕРСИТЕТЕ ИМЕНИ ШАРОФА
РАШИДОВА**

ГУЛИСТАНСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ УНИВЕРСИТЕТ

АЛТИБАЕВА МУХАЙЁ БЕГИМКУЛОВНА

**ГЕОГРАФИЧЕСКИЕ АСПЕКТЫ РАЗВИТИЯ СЕРВИСНЫХ СЕТЕЙ
СЫРДАРЬИНСКОЙ ОБЛАСТИ**

11.00.02 – Экономическая и социальная география

**АВТОРЕФЕРАТ ДИССЕРТАЦИИ ДОКТОРА ФИЛОСОФИИ (PhD) ПО
ГЕОГРАФИЧЕСКИМ НАУКАМ**

Самарканд – 2024

Тема диссертационного исследования доктора философии (PhD) по географическим наукам зарегистрирована Высшей Аттестационной Комиссией при Министерстве высшего образования, науки и инноваций Республики Узбекистан за номером № 2021.2.PhD/Gr161

Диссертация выполнена в Гулистанском государственном университете.
Автореферат диссертации на трёх языках (узбекский, русский, английский (резюме)) размещен на веб-странице Научного совета по адресу (www.samdu.uz) и на информационно-образовательном портале «ZiyoNet» по адресу (www.ziyo.net.uz).

Научный руководитель: Сафарова Насиба Иранкуловна
кандидат географических наук, доцент

Официальные оппоненты: Турдимамбетов Изимбет Рахметович
доктор географических наук (DSc), профессор
Мухаммедов Одил Лапасович
кандидат географических наук, доцент


Ведущая организация: Джиззахский Государственный Педагогический
Университет

Защита диссертации состоится 5 ноября 2024 года в 14:00 часов на заседании Научного совета по присуждению учёных степеней DSc.03/30.12.2021.Gr.02.07 при Самаркандском государственном университете имени Шарофа Рашидова. (Адрес: 140104, г. Самарканд, Университет бульвар, дом 15, Самаркандском государственном университете аудитория № 105. Тел.: (99895) 410-20-10; факс: (99866) 239-16-36, e-mail: ik-geografiya2019@mail.ru).

С диссертацией можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре при Самаркандском государственном университете имени Шарофа Рашидова (зарегистрирована под номером № ~~10A~~). Адрес: 140104, г. Самарканд Университет бульвар 15. Тел.: (99895) 410-20-10.

Автореферат диссертации разослан "22" октября 2024 года
(Реестр протокола рассылки № 22 от "9" октября 2024 года)




С.Б.Аббасов
Председатель Научного совета по
присуждению ученых степеней,
д.г.н., профессор

Б.А.Мелиев
Ученый секретарь Научного
совета по присуждению ученых
степеней, доктор философии
по географическим наукам, (PhD)доцент


К.С.Ярашев
Председатель Научного семинара
при Научном совете по присуждению
ученых степеней, д.г.н. (DSc), доцент

ВВЕДЕНИЕ (аннотация к диссертации доктора философии (PhD))

Актуальность и насущность темы диссертации. А настоящее время, наряду с происходящим в мировой экономике кардинальным поворотом из года в год возрастает экономическое значение сферы услуг. В экономическом развитии регионов сферы услуг являются областью создания относительно дешевых трудовых ресурсов, повышения занятости населения и сокращения бедности. Поэтому цель 1 программы ООН по устойчивому развитию до 2030 года направлена на решение таких задач, как “повсеместное снижение необеспеченности населения”, и задачи 1.3 - “усиление адресности и эффективности системы социальной защиты населения, повышение качества услуг социальной защиты». Это обстоятельство требует разработки и внедрения в практику системных мер, направленных на обеспечение занятости и благосостояния населения путем создания малозатратных отраслей обслуживания стран.

В мировом масштабе особое внимание уделяется работе по выявлению географических различий в инфраструктуре услуг, определению уровня естественного, социально-экономического развития регионов и улучшению демографической ситуации, расширению возможностей для развития многих нематериальных отраслей, а также повышению спроса являющегося их основным потребителем населения на виды предлагаемых услуг, также доли производителей. В этой связи приоритет отдается анализу природных, экономических, социальных, политических, демографических, инфраструктурных факторов, оказывающих высокое влияние на территориальное развитие сферы услуг, а также расширению возможностей пользования услугами, способствующих повышению уровня жизни населения, расширению доступа населения к современным и высококачественным услугам.

В последние годы в республике проводятся масштабные реформы по территориальной организации сферы оказания услуг населению и развитию новых видов услуг, а также повышению уровня занятости населения. В частности, в Стратегии развития Нового Узбекистана на 2022-2026 годы² определены приоритетные задачи по “Развитию системы инженерно-коммуникационной и социальной инфраструктуры регионов, а также сферы услуг и сервиса”. Эти задачи, особенно в занимающей благоприятное экономическое и транспортное географическое положение Сырдарьинской области приобретают важное значение для проведения углубленных научных исследований, направленных на улучшение занятости населения, формирования трудовых ресурсов и их территориального состава.

Данное диссертационное исследование в определенной степени послужит в процессе выполнения задач, определенных в Указах Президента Республики Узбекистан от 11 мая 2021 года № ПП-5113 “О мерах по ускоренному развитию сферы услуг”, от 27 января 2022 года № ПП-104 “О

²Указ Президента Республики Узбекистан. О новой стратегии развития Узбекистана на 2022-2026 годы. ПФ-60-й выпуск. 28 января 2022 г. <https://lex.uz/ru/docs/-5841063>.

